QASHQADARYO VILOYATI
QARSHI SHAHRI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko'chasi, 60-uy. Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2023 - yil 3 - iyul 187-4-69-Q/23 Qarshi shahar hokimligi

Qarshi shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish yuzasidan shaharadagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 464-I-sonli Qonunining 27-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomining 39-bandiga asosan shahardagi maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish jarayonida umumiy o'rta ta'lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimyati to'g'risida"gi Qonunning 6- moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qarshi shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro'yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Shahar hokimining o'rinbosari (F.Narmatov), shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (B.Mo'minov), shahardagi barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlariga;

-maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish, o'quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muommolarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifasi topshirilsin.

3. Shahardagi barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblansin.

4. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan shahar hokimining 2022-yil 30-iyundagi 426-4-69-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Qabul qilinayotgan mazkur qaror "e-qaror.gov.uz" elektron tizimi orqali elektron ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab ijrochilarga yetib borishi inobatga olinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari F.Narmatov zimmasiga yuklatilsin.

Qarshi shahar hokimi **N.Xolboyev**

Qarshi shahar hokimining
2023-yil 3-iyuldagi
187-4-69-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qarshi shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati